

PEDAGOGIKA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Po'latova Qunduz Asad qizi

Buxoro innovatsiyalar universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogika fani va uning ilmiy-tadqiqot metodlari va ularning turlari haqida so'z yuritiladi. Pedagogikaning ilmiy-tadqiqot metodlari qanchalik mukammal, aqlga muvofiq, to'g'ri tanlansa ta'lim-tarbiya mazmunni yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanadi, pedagogika fani ham boyib boradi.

Kalit so'zlar: Pedagogika, ilmiy-tadqiqot metodlar, tadqiqot, jarayon, mazmun, shaxs.

Hozirgi kunda o'qituvchilar metodikani ko'p hollarda texnologiyadan ajrata olmayaptilar. Shu boisdan bu tushunchalarni aniqlashtirish kerak bo'ladi. Metodika o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasidan iborat. Metodikadan ko'zlangan aniq maqsad predmet mavzulariga oid nazariyalarni aniq hodisalar tekisligiga ko'chirishdir.

Zamonaviy sharoitda, pedagogik yo'nalishda tadqiqotlami olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Talim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.

Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo'llash jarayonida ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muarnmo holati aniqlanadi, tajriba avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtaсидagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzliksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi. Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo'il qo'ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

- 1) kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
- 2) kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;
- 3) kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalami hal etish;
- 4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish;

5) xulosa chiqarishga shoshilmaslik.

Ta'lim amaliyotiga nisbatan pedagogik texnologiyaning uch sathli, ya'ni darajalari quyidagicha belgilanadi: umumpedagogik, xususiy metodik va lokal (modul).

1. Umumiy pedagogik daraja. Umumi pedagogik (umumdidaktik, umumtarbiyaviy) texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining yaxlit tizimliligi, ma'lum bir region, o'quv yurti tomonidan uzluksiz ta'lim tizimining muayyan bir bosqichidagi texnologiyaning umumiy qo'nuniyatlari, ilmiy-nazariy asoslari, tamoyillari, amaliyotda qo'llashning umumiy xususiyatlari, shart-sharoitlarini ifodalaydi. Shu o'rinda qayd etish kerakki, uzluksiz ta'lim tizimining har bir bosqichida ta'lim mazmuni orqali tegishli o'ziga xos maqsad va vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilganligi sababli, pedagogik texnologiya ham o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Bu darajada pedagogik texnologiya pedagogik tizim tushunchasiga sinonim xisoblanadi. Uning tarkibiga ta'lim-tarbiya jarayonining maqsad va vazifasi, mazmuni, vosita va metodlari, tarbiya jarayonining ob'ekti va sub'ekti faoliyatining algoritmlari kiradi.

2. Xususiy metodik darajada pedagogik texnologiyaning muayyan bir predmet, kursni o'qitish jarayonining maqsad va vazifalarini amalga oshirish maqsadida foydalaniladigan ta'lim mazmuni, o'qitish vositalari, metodlari, shakllarining majmuasi tushuniladi.

3. Lokal (modul) darajada ta'lim-tarbiya jarayonining ma'lum bir qismining xususiy didaktik va tarbiyaviy maqsadini hal etishga qaratilgan texnologiya tushuniladi. Unda o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish, o'quvchilar bilimini nazorat qilish, shaxsiy fazilatlarni shakllantirish kabi masalalar ko'zda tutiladi. Pedagogik texnologiyaning yuqorida qayd etilgan uchta darajasi bir-birini to'ldiradi va taqozo etadi.

Pedagogik texnologiyaning ijtimoiy asosi har bir shaxs, jamiyat va davlatning ta'lim-tarbiya sohasidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi va shu ehtiyojlarni qondirishning maqsad va talablarini, tashkiliy shakllari va usullarini belgilaydi. U shaxsnинг, jamiyatning va davlatning rivojlanishida asosiy omillardan hisoblanadi.

Inson va uni shakllantirishga doir fan sifatida Pedagogika falsafa, etika, estetika, madaniyatshunoslik, psixologiya, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, demografiya, tarix, adabiyot, tibbiyot va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq. Pedagogika fani va amaliyoti taraqqiyotida bu fanlarning nazariy asoslari, tadqiqot metodlari, ilmiy xulosalarni aniqlash, taxlil qilish hamda umumlashtirish usullaridan foydalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. SH.M.Mirziyoev. Konstitutsiya-erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir-Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 22b .
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlanish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni// O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjalari to'plami. -T., 2017. -B.39.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni // QHMMB: 06/17/5264/0339-son 01.12.2017 y.
4. Azizzodjayeva N .N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat (garslik). - T.. 2006 y.